

**UMUMTA'LIM 01/23- MAKTABLARINING 5-SINF TSMG TASVIRIY SAN'AT  
DARSLARIDA "ANIMALISTIK JANR" MAVZUSIDA RASM ISHLASH  
METODIKASINI O'RGATISH**

Mamatov Ilyosjon Ilhomovich <sup>1</sup>,

Soliyeva Muqaddasxon Salimjon qizi <sup>2</sup>

Qo'qon davlat universiteti, San'atshunoslik va sport fakulteti,

Qo'qon davlat universiteti, San'atshunoslik va sport fakulteti, Tasviriy san'at va muhandislik  
grafikasi yo'nalishi, 3-bosqish 01/23 guruh talabasi, soliyeva2202b@gmail.com

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 5-sinf tasviriy san'at darslarida "Animalistik janr" mavzusini o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning hayvonot olamiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning badiiy tafakkuri, kuzatuvchanligi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan.

Maqolada "animalistik janr" tushunchasining mazmuni, uning san'at tarixidagi o'rni, mashhur rassomlarning asarlarida hayvonot olamining tasviri hamda bu janrni o'qitishda qo'llaniladigan amaliy mashg'ulotlar misolida ochib berilgan. Muallif dars jarayonida interfaol metodlar — "klaster", "blits-so'rov", "ijodiy topshiriq" kabi usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning tasviriy ifoda vositalarini ongli ravishda qo'llay bilish ko'nikmalarini rivojlantirishni taklif etadi.

Shuningdek, maqolada darslarni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, hayvonot olamini o'rganish orqali ekologik madaniyatni shakllantirish va estetik didni tarbiyalashning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Animalistik janr" mavzusini o'qitishda ijodiy yondashuv o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi hamda ularning mustaqil ishlash malakasini mustahkamlaydi.

**Kalit so'zlar:** animalistik janr, tasviriy san'at, 5-sinf, metodika, ijodkorlik, rasm ishlash, estetik tarbiya, ekologik madaniyat, kuzatuvchanlik, interfaol metodlar.

**Аннотация:**

В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики преподавания темы «Анималистический жанр» на уроках изобразительного искусства в 5-х классах общеобразовательных школ. Исследование направлено на развитие у учащихся интереса к миру животных, формирование художественного мышления, наблюдательности и творческих способностей.

Раскрыто содержание понятия «анималистический жанр», его роль в истории искусства, особенности изображения животных в работах известных художников. Автор предлагает применять на уроках интерактивные методы — такие как «кластер», «мозговой штурм», «творческое задание» — для развития у учащихся осознанного использования изобразительных средств.

Особое внимание уделяется внедрению современных технологий в учебный процесс, воспитанию экологической культуры и эстетического вкуса через изучение животного мира. Результаты исследования показывают, что творческий подход к преподаванию темы «Анималистический жанр» способствует росту интереса учащихся к искусству и повышает их самостоятельность в изобразительной деятельности.

**Ключевые слова:** анималистический жанр, изобразительное искусство, 5 класс, методика преподавания, творчество, рисунок, эстетическое воспитание, экологическая культура, наблюдательность, интерактивные методы.

#### **Abstract:**

This article explores the improvement of teaching methods for the topic “Animalistic Genre” in 5th-grade visual arts classes at general education schools. The study focuses on enhancing students’ interest in the animal world, developing their artistic thinking, observational skills, and creative expression abilities.

The article defines the concept of the “animalistic genre,” discusses its role in the history of art, and examines examples of depicting animals in the works of renowned artists. The author proposes the use of interactive teaching methods — such as “cluster,” “brainstorming,” and “creative assignment” — to develop students’ ability to consciously apply artistic tools and techniques.

Moreover, the research highlights the importance of integrating modern educational technologies, fostering ecological awareness, and cultivating aesthetic taste through studying the animal world. The findings indicate that a creative and student-centered approach to teaching the “Animalistic Genre” significantly increases students’ interest in art and strengthens their independent artistic skills.

**Keywords:** animalistic genre, visual arts, 5th grade, teaching methodology, creativity, drawing, aesthetic education, ecological awareness, observation, interactive methods.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohalarini, xususan, tasviriy san‘atni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – bu avvalo yuksak ma‘naviyatli jamiyat” degan tamoyili asosida mamlakatimizda san‘at ta‘limining barcha bo‘g‘inlarida islohotlar amalga oshirilmoqda.

2020-yilda qabul qilingan “Madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish konsepsiyasi”, shuningdek, “Tasviriy san‘at va dizayn sohalarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qarorlar” o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish, ularni estetik jihatdan tarbiyalash hamda milliy qadriyatlarimizni san‘at orqali singdirish yo‘lida muhim dasturilamal hujjatlar bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jumladan, “Yoshlarni san‘at va madaniyatga keng jalb etish, ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish”ga qaratilgan qarorlar, “Ijod maktablari”ni tashkil etish, “Tasviriy va amaliy san‘atni rivojlantirish konsepsiyasi” hamda “Milliy san‘at merosini asrash va targ‘ib qilish dasturi”ning qabul qilinishi san‘at ta‘limi tizimida tub o‘zgarishlar yasadi. Bu jarayonda tasviriy san‘at darslari orqali o‘quvchilarning estetik madaniyatini, go‘zallikni his etish, tabiat va hayvonot dunyosiga mehr uyg‘otish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda tasviriy san‘at darslarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, san‘atning turli janrlarini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan yangicha metodik yondashuvlar zarurdir. Ana shunday janrlardan biri — animalistik janr bo‘lib, u o‘quvchilarda tabiatga mehr, kuzatuvchanlik, sabr-toqat va badiiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Umumta‘lim maktablarining 5-sinf bosqichi o‘quvchilarda atrof-muhitni idrok etish, hayvonot olamiga nisbatan qiziqish, kuzatuvchanlik va badiiy tasavvurni shakllantirish uchun eng qulay davrdir. Shu bois, bu sinfda “Animalistik janr” mavzusini o‘rgatish — nafaqat tasviriy san‘at ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki tabiatni sevish, hayvonlarni asrash, ularning go‘zalligini qadrlash kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Shu bilan bir qatorda tasviriy san‘at darslarida "Animalistik janr" mavzusida rasm ishlash metodikasini aniqlash, uning metodik bosqichlari, dars jarayonida qo‘llaniladigan metodlar va pedagogik vositalarni tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagicha belgilandi:

1. Animalistik janr tushunchasi, uning tasviriy san‘atdagi o‘rni va rivojlanish bosqichlarini nazariy jihatdan o‘rganish.
2. 5-sinf o‘quvchilari uchun hayvonot olamini tasvirlash orqali badiiy tasavvur va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik xususiyatlarini aniqlash.
3. Dars jarayonida qo‘llaniladigan metodlar, o‘qitish vositalari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
4. O‘quvchilarning kuzatuvchanligini, badiiy tafakkurini va tabiatga mehrini rivojlantirishga qaratilgan amaliy metodik yondashuvni tayyorlash.

Tadqiqot usullari sifatida san'atshunoslik adabiyotlari tahlili, pedagogik kuzatuv, o'quvchilarning amaliy ishlari va eskizlarini tahlil qilish, o'qituvchi intervyulari kabi usullar qo'llanildi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning tabiatni badiiy idrok etish, kuzatish va ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Animalistik janr — bu tasviriy san'atda hayvonlar olamini tasvirlashga bag'ishlangan yo'nalishdir. Bu janrda rassom faqat tashqi shaklni emas, balki hayvonning harakati, xarakteri, tabiiy muhitdagi holatini ifodalashga intiladi. 5-sinf o'quvchilari uchun bu mavzu juda dolzarb, chunki ularni tabiatni sevishga, hayvonot olamiga ehtiyotkorlik va qiziqish bilan qarashga o'rgatadi. Shu bois, "Animalistik janr" mavzusida rasm ishlash metodikasi o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshirish, badiiy ifoda tilini o'zlashtirish hamda realistik va obrazli fikrlashni rivojlantirishga qaratiladi.

Tasviriy san'at fanida bu mavzuning o'rnini alohida, chunki u shakl, harakat, proporsiya, faktura va muhitni ko'rish malakasini o'rgatadi. O'quvchilar hayvonlarning tana tuzilishi, harakati va xarakterli belgilarini o'rganish orqali nafaqat rasm chizishni, balki tabiatni estetik idrok etishni ham o'rganadilar. Shuningdek, bu jarayon ularning vizual xotira, kuzatuvchanlik, tafakkur kabi kognitiv qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

O'qituvchi uchun metodik jihatdan muhim jihat — hayvon obrazini chizishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning rasm chizish tajribasi va tabiat haqidagi tasavvurini inobatga olishdir. 5-sinf o'quvchilari hali shakl va hajmni to'liq idrok etish bosqichidadir, shu bois dars jarayonida oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich o'qitish zarur.

## **Dars jarayoni bir necha asosiy bosqichlardan iborat bo'ladi:**

### **1. Tayyorgarlik bosqichi.**

Dars boshida o'qituvchi "animalistik janr" tushunchasini tushuntiradi, mashhur rassomlar (V. Vasnetsov, I. Levitan, R. G'aniyev, R. Ahmedov va boshqalar)ning asarlari namunalari orqali hayvon obrazining turli ifoda shakllarini ko'rsatadi. O'quvchilar bilan hayvonlarning harakatlari, tana tuzilishi, muhitdagi holati haqida suhbat o'tkaziladi. Bu bosqichda o'quvchilarning kuzatuvchanlik va estetik idroki faollashadi.

### **2. Analitik bosqich.**

O'quvchilar tanlangan hayvon obrazini tahlil qiladilar: uning shakli, o'lchami, proporsiyasi, harakati, tanasining asosiy qismlari aniqlanadi. O'qituvchi geometrik shakllar orqali (oval, silindr, konus) hayvon tanasining asosiy qismlarini chizishni ko'rsatadi. Bu bosqichda o'quvchilar rasmning tuzilishini tushunadilar, kompozitsiya markazini aniqlashni o'rganadilar.

**3. Loyihalash bosqichi.**

O'quvchilar qog'ozda eskiz tayyorlaydilar, hayvonning holati va fonini tanlaydilar. Bu yerda o'qituvchi "hayvon harakatda bo'lsin", "muvozanatni saqlang", "fon hayvonning holatini to'ldirsin" kabi metodik ko'rsatmalar beradi. Rasmda hayvonning tabiiy harakati (masalan, yugurish, sakrash, suzish, o'lja tutish) ifodalangan bo'lishi tavsiya etiladi.

**4. Ijodiy-amaliy bosqich.**

O'quvchilar akvarel, guash, rangli qalam yoki pastel yordamida hayvon obrazini to'liq ishlaydilar. Bu bosqichda rang tanlash, yorug'-soya, tekstura va fazoviy joylashuv muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi konsultant sifatida har bir o'quvchining ijodiy qarorini qo'llab-quvvatlaydi, rang uyg'unligi va kompozitsion yechim bo'yicha maslahat beradi.

**5. Refleksiya va baholash bosqichi.**

O'quvchilar o'z ishlarini taqdim etadilar, sinfdoshlarining ishlarini tahlil qiladilar. Savollar asosida fikrlash rag'batlantiriladi: "Hayvonning xarakterini qanday ifodalading?", "Ranglar kayfiyatni qanday yetkazdi?", "Agar qayta ishlasang nimalarni o'zgartirarding?". Baholash mezonlari — kompozitsiyaning yaxlitligi, shakl aniqligi, rang uyg'unligi, ijodiy yondashuv, janrga moslik.

Tajriba jarayonida aniqlanishicha, "Animalistik janr" mavzusida rasm ishlash o'quvchilarda ijodiy faollikni oshiradi, tabiatga bo'lgan mehrni kuchaytiradi, badiiy tafakkurni rivojlantiradi. Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatildi: hayvon shaklini to'g'ri proporsiyada tasvirlashda qiynalish, rang va yorug'likni to'g'ri tanlay olmaslik, harakatni ifodalashda sustlik. Bu muammolarni bartaraf etish uchun hayvon rasmlarini bosqichma-bosqich chizish mashqlari, videomateriallar, tabiiy kuzatuv (hayvonot bog'iga sayohat, suratlar tahlili) kiritilishi tavsiya etiladi.

O'qituvchi darsni samarali tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratishi kerak:

O'quvchilarning yoshiga mos, vizual jihatdan sodda, lekin mazmunli hayvon obrazlarini tanlash.

Har bosqich uchun aniq vaqt ajratish, eskizdan yakuniy rasmgacha bo'lgan jarayonni modullarga ajratish.

Guruhli va individual ishlarni uyg'unlashtirish, o'quvchilar o'rtasida fikr almashuvni tashkil etish.

Dars yakunida mini-ko'rgazma o'tkazish, o'quvchilarning ishlarini rag'batlantirish.

Amaliy tajriba ko'rsatdiki, 5-sinf o'quvchilari uchun animalistik janrda ishlash ularning nafaqat rasm chizish ko'nikmalarini, balki tabiatni badiiy idrok etish, tahliliy fikrlash va estetik baho berish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu yondashuv darsni interfaol, jonli va ijodiy muhitda o'tkazishga imkon beradi.

Kelgusida bu metodikani yanada takomillashtirish maqsadida turli hayvon turlariga bag'ishlangan modullar (qushlar, suv hayvonlari, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar) ishlab chiqish, o'quvchilar ishlarini raqamli platformalarda namoyish etish, virtual ko'rgazmalar tashkil etish taklif etiladi. Bu esa o'quvchilarda ijodiy o'zini ifodalashga, san'at va tabiatni uyg'un idrok etishga yordam beradi.

Shunday qilib, "Animalistik janr" mavzusida rasm ishlash metodikasi 5-sinf tasviriy san'at darslari uchun zamonaviy, ijodiy va interfaol yondashuvni ta'minlaydi. U o'quvchilarning kuzatuvchanligi, badiiy tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, ularni tabiatni sevuvchi, badiiy didga ega shaxslar sifatida shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston – maktabdan boshlanadi". — Toshkent, 2023.
2. Abdirasilov S. F. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
3. Oripov B. N. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. — Toshkent, 2005.
4. Abdullayev S. S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
5. Baxriyev I. S. "San'at asarlarida kompozitsiya va uning muhim ahamiyati". — Ilmiy maqola, 2023.
6. Nishonbekovich N. U. "Tasviriy san'at darslarida kreativ yondashuv metodlari". — Iqro jurnali, 2025.
7. Rajabov R. Tasviriy san'at. 5-sinf. — Toshkent, 2015.
8. Qodirova M. "Animalistik janrning san'atdagi o'rni va ahamiyati". — San'at va madaniyat, 2024.
9. Komilov F. "Shaxsning badiiy madaniyatini rivojlantirishda san'atning o'rni". — Ilmiy izlanishlar jurnali, 2024.
10. Qurbonova B. M. "O'quvchilarni tasviriy san'at darslarida kuzatuvchanlikka o'rgatish metodikasi". — Ilmiy maqola, 2024.